

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLARNING IFODALANISHI

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi

Namangan davlat universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Telefon: +998976830312

shoxistayoqubboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21253948>

Annotatsiya: Badiiy adabiyot tilining tasviriy vositasi sanalgan o'xshatish o'zining obrazlilik, tasviriylik, emotsional-ekspressivlilik kabi xususiyatlari bilan badiiy asar tilida yaqqol sezilib turadi. U badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llaniladi va badiiy asar yuzaga keladi. Birorta badiiy asar yo'qki, unda o'xshatish bo'lmasin. Umuman, badiiy asarning badiiylilik belgisi *o'xshatish, sifatlash, metafora, jonlantirish* kabi tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Tilshunoslikda esa material sifatida qanday leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanish yo'llari o'rganiladi. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning she'riyatida qo'llanilgan o'xshatishlar va ularning ifodalanish usullari haqida gap boradi.

Til taraqqiyoti turli lisoniy va nolisoniy omillar bilan rivojlanadi va ularga monand ichki va tashqi manbalardan kuch olib boyib boradi. Til taraqqiyotida muhim bo'lgan ichki manba, tabiiyki, xalq tili va uning dialektlariga ham bog'liq [3,88]. Til bu insonning butun borlig'i - moddiy turmushi, madaniy, ma'naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aql-u tafakkuri, estetik olami, o'tmishi, buguni va istiqbolini gavdalandiradigan musaffo oynadir. Oynaga qarab turib, xalqning mentalitetini, etnik urf-odatlarini, uning o'zigagina xos xususiyatlarini bilib olish mumkin [1,35-39].

O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi [4,161]. M.I.Cheremisina o'xshatishni morfologik yoki lug'aviy emas, balki sintaktik konstruksiya deb baholaydi. Chunki o'xshatish uchun bittagina so'z yoki shakl kamlik qiladi [7,270].

O'xshatish eng qadimiy tasviriy vositalardan biri bo'lib, juda ko'p qo'llanadigan sintatik hodisa hisoblanadi. Tropning bir ko'rinishi sifatida o'xshatish adabiyotshunoslikda o'rganilsa, uning ifodalanish usullari, tuzilishini o'rganish, umuman, til materiali sifatida tilshunoslikning ham obyekti sanaladi. O'xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O'xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini tashkil etadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo'ladi. Insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi [9,321-322]. Bunda millatning qadriyatlarini, asrlar davomida shakllangan madaniy me'yorlari muhim ahamiyat kasb etadi [6,16].

O'xshatish asosi yuzasidan turli fikrlar kuzatiladi. Xususan, o'xshatish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan M.Mukarramov o'xshatishda uch asos mavjudligini e'tirof etadi [5,6]. Ya'ni “o'xshatiluvchi obyekt”, “o'xshovchi obraz”, “o'xshatma”. Boshqa manbalarda esa o'xshatishning to'rt asosiy qismdan tarkib topganligi ta'kidlanadi [8,240]:

- 1) o'xshatilgan narsa;
- 2) o'xshatiladigan predmet;
- 3) o'xshatish asosi;
- 4) o'xshatish vositasi.

Toshdek dumalaydi hali asrlar,
Davrlar otadi kiyikdek cho'chib,
Hali ochiladi chuvalgan sirlar,
Falak asrorin ham olarlar topib [10,118].

Muayyan badiiy tasvir vositalarini o'rganish yozuvchining badiiy til mahoratini, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini ko'rsatish imkonini beradi. Badiiy asar tilini o'rganish yozuvchining badiiy mahoratini tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Badiiy mahorat tushunchasi til va badiiy uslub mezoni hamdir. Chunki yozuvchining so'z tanlash san'ati, uning tasviriy vositalardan foydalanish, so'z qo'llash mahorati badiiy asar tilini o'rganishning asosini tashkil etadi [2,189]. O'xshatish qadimiy tasviriy vosita sanalib, og'zaki nutqda va badiiy nutqda keng qo'llanadi.

O'xshatishlar ma'lum grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Bu grammatik vositalarga **-dek**, **-day** qo'shimchalari **xuddi singari**, **kabi**, **bamisoli**, **misoli** kabi yordamchi so'zlar kiradi.

Dala.Mezon. Qizlar. Tarozi.
Paxsali devorlar. Ismsiz qirlar.
Yulduzdek titranib uchgan ovozim,
Tizzani quchoqlab o'qilgan she'rlar [10,42].
Olov tegrasida qaynagan o'lan.
Yurakdek qontalash chinor yaprogi.
“Sevsam o'ldiralar sevmasam o'lam...”
Va hisobchi qizning nigohi...[10,42]
Dedi: “O'g'lon, qaragin,
Zulfim suvdayin mayin.
Barmoq solib taragin,
Ketma yuzing yuvmayin!” [10,43]

Yuqorida keltirilgan misralarda go'zal va betakror o'xshatishlar hosil qilingan. Ya'ni **yulduz** (o'xshatilayotgan narsa) - **ovoz** (o'xshagan narsa,)o'xshatish elementi **-dek**, **titranmoq** asos orqali holat bilan bog'liq o'xshatish hosil bo'lgan. Ikkinchi misolda esa **yurak** (o'xshatilayotgan narsa) – **yaproq**(o'xshagan narsa), **qontalash o'xshatish** asosi, **-dek** vosita. Bu o'rinda shoir rang bilan bog'liq original o'xshatish yaratgan. Darhaqiqat, chinorning bargini kuzatsak, uning rangi juda murakkab, qontalash leksemasi orqali ifodalangan rangni ham aniqlash mushkul. O'xshatish qiyoslashga asoslanadi. Doimo o'xshashlik asosini aniq belgilash mumkin bo'lavermaydi. Uchinchi misolda esa **mayin** o'xshatish asosi, **-day** o'xshatish elementi, **zulf** (o'xshatilayotgan narsa) – **suv** (o'xshagan narsa). Bu joyda original o'xshatish hosil qilgan. Sochimizni suvga solsak, silliq, yumshoq bo'lib yoyilib ketadi. Bu go'zal manzarani shoir his qilgani holda go'zal o'xshatish yaratgan.

O'shanda
o'zim ham olov edim-da,
Tushovini uzgan toyga o'xshardim,
Akamning choponin ilib egnimga
Qirda
Quyun bilan kurash tushardim [10,44].
Zulfi zar qizgina,
qo'llaring o'pib,
Ko'zimda oynadek yaxladi yoshim,

*Esladim,
Kaftiga kuhlalab, yer tepib,
Sibirlarda qolgan o'n sakkiz yoshim [10,45].*

**Qoshlaring kamondek tortilar tarang,
Tutdek to'kiladi so'nggi bardoshim.**

*Bilmaysan,
o'q otish maydonlarida
Juvonmarg bo'lganin o'n sakkiz yoshim [10,45].*

Berilgan misralardagi birinchi misolda o'xshatilayotgan obyekt yashirin(**men**) – o'xshatilgan narsa **toy**, vosita **o'xshamoq**, asos **tushov**. Matndan obyektни aniqlash mumkin. Ikkinchi misolda tojik tilidan o'zlashgan **yax** so'zi asos vazifasini bajargan. Vosita – **dek**, o'xshagan narsa – **yosh**, o'xshatilgan narsa – **oyna**. 3-misolda shoir **kamondek qosh** an'anaviy o'xshatishidan foydalanganini ko'rish mumkin. Keyingi misrada **tutdek to'kilmoq** o'xshatishli ibora **bardosh** so'ziga nisbatan qo'llanilib murakkab o'xshatishli konstruksiyani hosil qilgan.

*Bir kun oy bilan tillasha turib,
His qildim yuragim og'riqligini.*

**Ko'klam sellaridek qonim gupirar,
Angladim yashashim zarurligini [10,54].**

Bu o'rinda sel va qon leksemalari o'xshatish komponentlari sifatida qo'llangan.

**Xazondek sochildi necha bor taqvim,
Yurak ham to'kildi yaproqqa o'xshab.**

*Shamolda sovrildim, soylarda oqdim,
Sen hamon o'shasan, sen o'sha-o'sha [10,56].*

Yuqorida muallif she'rlaridan olingan misollarda ham o'xshatishga asoslangan iboralar **xazondek sochildi, yurak ham to'kildi** o'xshatish komponenti vazifasini bajarib kelgan. Bu esa o'z navbatida, o'xshatish mazmunining obrazlilik va ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qilgan. Tilimizda **yuragim tutni bargiday to'kiladi**(turli ruhiy holatni ifodalaydi) tarzidagi va **yuragi to'kilmoq (sog'inmoq)** kabi iboralar qo'llanadi. Shoir ularni qayta ishlab betakror o'xshatishlar hosil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'xshatish juda keng miqyosli hodisa bo'lib, sintaktik- stilistik chegaralarni bilmaydi. Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llangan o'xshatishlar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini o'zida namoyon etgan. Shoir ijodida qo'llangan o'xshatishlar badiiy pardoiz bo'libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shuning uchun ham ularda tasviriylik va uslubiy bo'yoq, ekspressivlik kuchli darajada ifodalangan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Бегматов Э. Антропонимлар-антропоцентрик тадқиқот объекти. //ЎТА,2013,№ 3.Б. 35-39.
2. Келдиёрова Г. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами.-Тошкент,2012.- Б.189
3. Маҳмудов Н.Тилимизнинг тилла сандиғи.Т.,Ғафур Ғулом нашриёти, 2012. - Б.88

4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи.- Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. -Б.161
5. Мукаррамов. М. Ўзбек тилида ўхшатиш. -Тошкент: “Фан”, 1976, -Б. 6
6. Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвوماданий тадқиқи. Фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф.Тошкент, 2020, Б.16
7. Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка.- Новосибирск: Наука,1976.-270 с.
8. Шомақсудов.А ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983, -Б.240.
9. Ғойибова З. Ўхшатишлар-образли миллий тафаккур маҳсули. / проф.Ҳ.Неъматовнинг 75 йиллигига бағишланган илмий-назарий конф.матер. Тошкент,2017, 321-322-бб.
10. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent. 2007.